



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Buxoro viloytida kichik tadbirkorlik 2022- yil yanvar-mart




Dastlabki ma'lumotlar


Buxoro viloytida kichik tadbirkorlik




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil




2022- yil

2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YAHM** dagi ulushi **66,7 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **14,1** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-martida **1238** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **71,5** foizni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **340** ta, sanoatda **215** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **205** ta, yashash va ovqatlanishda **72** ta, qurilishda **75** ta, tashish va saqlashda **168** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 99,0



Sanoat 35,7



Qurilish 80,0



Investitsiya 30,1



Savdo 82,5



Xizmatlar 62,6



Eksport 65,8



Import 64,6



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

27 952




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

1 238

2022- yilning yanvar-martida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

31,7 %

Sanoat

17,3 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

11,8 %

Qurilish

10,4 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

8,6 %

Tashish va saqlash

6,6 %

Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


2,6 %

Axborot va aloqa

1,2 %


Boshqa faoliyat turlari

9,8 %



1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Tuman va shaharlar bo'yicha 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2021- y.

■ 2022- y.

■ (+;-)

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Tuman va shaharlar bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2021- y. yanvar-mart

■ 2022- y. yanvar-mart

2022- yil yanvar-martda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da


2022- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buxoro shahri – 23,3 %, G'ijduvon tumani – 11,4 %, Buxoro tumani – 8,9 %, Romitan tumani – 11,2 %, Jondor tumani – 8,8 %, Shofirkon tumani – 6,5 %, Vobkent tumani – 7,1 %, Qorako'l tumani – 3,8 % hissalariga to'g'ri keldi.





Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-martda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022- yil yanvar-martda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:


Savdoda
340 ta

Sanoatda
215 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
205 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
72 ta

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 14,1 birlikni tashkil etdi.



O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1-aprel holatiga ko'ra*


2020- y. 8,8

2021- y. 13,2

2022- y. 14,1

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 33,9 birlik, Buxoro shahri 28,2 birlik, Kogon tumanida 19,0 birlik, Romitan tumanida 16,8 birlik, Buxoro tumanida 12,8 birlik, Jondor tumanida 11,1 birlik, Kogon shahri 18,3 birlik, Shofirkon tumanida 8,9 birlik, Olot tumanida 8,7 birlik, Vobkent tumanida 10,4 birlik, G'ijduvon tumanida 9,4 birlik va Qorako'l tumanida 7,8 birlikni tashkil etgan.



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 33,9 birlik, Buxoro sh. 28,2 birlik, Kogon tumanida 19,0 birlik, Kogon sh. 18,3 birlik, Romitan tumanida 16,8 birlik, Peshku tumanida 12,8 birlik Buxoro tumanida 12,8 birlik, va Jondor tumanida esa ushbu 11,1 birlikni tashkil etdi.


O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra*

Eng yuqori ko'rsatkich
Qorovulbozor tumani
- 33,9 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich
Buxoro tumani
- 12,8 birlik.

Past ko'rsatkich
Qorako'l tumani
- 7,8 birlik.

2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *




* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 42,9 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 65,7 % ini tashkil etdi.

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi




2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Olot tumanida – 100,0 %, Jondor tumanida – 100,0 %, Buxoro tumanida – 100,0 %, Shofirkon tumanida – 94, %, Romitan tumanida – 89,2 % Vobkent tumani 82,4 % ni, eng past ko'rsatkich G'ijduvon tumani – 30,1% ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **155,4** million AQSH dollarini yoki umumiy importning **64,6** % ini tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Shofirkon tumanida – 100,0%, Peshku tumanida – 100,0%, Olot tumanida – 100,0 %, Jondor tumanida – 99,6 %, Buxoro tumanida 96,9 % ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida – 1,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1630,5** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro sh. (280,1 mlrd. so'm), Shofirkon tumani (260,5 mlrd. so'm), Kogon tumani (218,3 mlrd. so'm), Buxoro tumani (143,2 mlrd. so'm) va G'ijduvon (137,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Qorovulbozor tumanida (27,6 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2022- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **35,7 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-mart holatiga shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Jondor tumani (100, %), Vobkent tumani (100,0 %), Buxoro tumani (100,0%), Kogon tumani (97,2 %), Olot tumani (92,2 %), Shofirkon tumani (90,1 %), Buxoro sh. (48,9 %), Kogon sh. (38,7%), Qorako'l tumani (35,2 %) tumanlarida tashkil etdi. Qorovulbozor tumani (1,7 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **2 904,1** mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **82,3** % ini tashkil etib, oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **105,8%** ga oshgani kuzatildi.

2022- yilning yanvar- martida shahar va tumanlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (**835,9** mlrd. soʻm), Gʻijduvon (**600,8** mlrd. soʻm), Qorakoʻl (**239,9** mlrd. soʻm), Bu-xoro (**202,6** mlrd. soʻm), Jondor (**182,9** mlrd. soʻm), va Romitan (**182,3** mlrd. soʻm) viloyatlari hissasiga toʻgʻri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1 238** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **80,0%** ni tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **106,4 %** ni tashkil qildi.



Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Buxoro shahri (315,3 mlrd. soʻm), Buxoro (114,5 mlrd. soʻm), Gʻijduvon (117,6mlrd. soʻm), Jondor (95,8 mlrd. soʻm), Shofirkon (82,9 mlrd. soʻm), Peshku (97,7mlrd. soʻm) hamda Romitan (94,6 mlrd. soʻm) viloyatlarida qayd etildi.

2022- yilning yanvar-martida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati




■ hajm, mlrd. soʻm

● oʻsish surʻati, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati


Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi



2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 123,1** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **62,6%** ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **118,5 %** ni tashkil qildi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Buxoro shahri (529,3 mlrd. soʻm), Gʻijduvon (350,3 mlrd. soʻm), Jondor (158,2 mlrd. soʻm), Buxoro (155,8 mlrd. soʻm), Peshku (147,7 mlrd. soʻm), Romitan (128,1 mlrd. soʻm) va Vobkent (118,2 mlrd. soʻm) viloyatlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2022- yilning yanvar-martida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




2022- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 89,4 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,8 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 70,6% ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,9 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,7 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 108,0 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 98,5 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 108,1 % ni tashkil qildi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1489** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **543** (36,5 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **840** (54,6%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **106** (7,1%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik-7,1% (105 ta), sanoatda – 16,6% (248 ta), qurilishda -11,4% (170 ta), savdoda – 35,3% (525 ta), xizmatlar sohasida – 29,6 % (441 ta) ni tashkil etdi.


2022- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasiga – 38,3 % ni, sanoatda 37,9 % ni, savdoda 37,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 70,5 % ni, savdoda 56,4 % ni va qurilishda – 55,9 % ni, tashkil etdi.

2022- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda 46,4 % ni, savdoda 43,3 % ni, xizmatlar sohasida 42,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 64,8 % ni, xizmatlar sohasida – 53,5 % ni qurilishda 53,5 % ni tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2022- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	51,0	41,5	7,5
Band bo'lganlar soni	32,1	64,0	3,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	41,1	53,3	4,6
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	38,2	56,5	5,3
Raqobat muhiti*	45,0	51,1	3,9
	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	54,8	42,1	3,1
Band bo'lganlar soni	35,2	62,4	2,4
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	46,3	50,9	2,8
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	41,2	55,6	3,2
Raqobat muhiti*	48,3	49,2	2,5


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2022- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish
statistikasi bo'limi
65 223-81-96